

BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- noyabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar- noyabr oylarida, birlikda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,6** foizga oshdi



■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish
■ O'rmon xojaligi
■ Baliq xojaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan **12,9** foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 4 861 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,9 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 112,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,9%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 104,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 125,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 134,8% ga (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlarisoni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

9



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

743



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

22



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

13



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



370

yashash bo'yicha xizmatlar



2 054

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 424 tanitashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 110,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yichaxizmatlar sohasidagi ulushi 84,7 %), yashash bo'yicha xizmatlarning- 98,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 15,3 %) o'sishidir.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 3 579 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 584 taga yoki 119,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 307 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 521 taga yoki 120,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 882 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 229 taga yoki 20,6 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 319 tani tashkil etib, ulardan 314 tasiyoki 98,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 14 taga yoki 104,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- noyabr oylaridaviloyatimizda 44 ta xorijiy kapital ishtirokidagikorxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- noyabr oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	85	145	265	285	319
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1	6	20	25	28
Sanoat	59	80	115	124	127
Qurilish	4	7	29	29	30
Savdo	9	21	59	64	72
Tashish va saqlash	-	1	6	5	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	12	20	22	22
Axborot va aloqa	1	-	1	1	1
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	4	6	7
Boshqa turlar	7	14	19	20	22


**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

15

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Viloyatbo'yicha	314	191	123
Buxoro shahar	165	89	76
Kogon shahar	15	12	3
tumanlar:			
Olot	6	1	5
Buxoro	19	16	3
Vobkent	4	3	1
G'ijduvon	11	9	2
Kogon	24	18	6
Qorako'l	9	7	2
Qorovulbozor	10	5	5
Peshku	19	8	11
Romitan	11	7	4
Jondor	14	11	3
Shofirkon	7	5	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 166 ta (umumiy miqdordagi ulushi 52,5 %), Kogon tumani 24 ta (7,6 %), Peshku tumani 19 tani (6,1 %), Kogon shahar 15 ta (4,8 %), Buxoro tumani 20 ta (6,1 %), hamda Jondor tumanlarida 14 tani (4,4 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

17




2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (28,3 %), G'ijduvon (10,8 %), Romitan (8,3 %), Buxoro (7,6 %), Jondor (6,7 %), Peshku (6,0 %), Shofirkon (6,0 %), Kogon (5,4 %), Qorako'l (5,5 %), Vobkent (5,3 %), Kogon shahar (4,2 %), Olot (3,6 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021-yilyanvar- noyabr oylarida, birlikda)

2021-yilning yanvar- noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonava tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (22,4 %), G'ijduvon (10,8 %), Buxoro (8,3 %), Romitan (7,8 %), Peshku (5,4 %), Kogon (5,8 %), Jondor (7,8 %), Vobkent (6,2 %), Shofirkon (7,6 %), Qorako'l (6,8 %), Olot (4,3 %), Qorovulbozor (2,0 %) tumanlari va Kogon shahar (4,8 %), ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlangandaularning ulushi, Buxoro shahri (29,0 %), G'ijduvon (10,7 %), Romitan (8,6 %), Buxoro (7,9 %), Jondor (7,0 %), Peshku (5,9 %), Shofirkon (5,6 %), Kogon (5,5 %), Vobkent (5,3 %), Qorako'l (4,8 %), Kogon shahar (4,1 %), Olot (3,2 %), Qorovulbozor (2,4 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021-yilning yanvar- noyabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborotma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdano'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'r alayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Buxoro viloyati
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: (65) 223-83-20**